

**Qishloq xo'jaligi vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko'rib chiqish natijalari haqidagi 2025-yil yarim yillik bo'yicha
HISOBOT**

I. Umumiy ma'lumot

2025-yilning boshidan buyon vazirlik markaziy apparatiga korrupsiya faktlariga doir 10 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 3 tasi Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi orqali, 2 tasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga to'g'ridan to'g'ri ravishda kelib tushgan.

Shundan hududlar bo'yicha, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shaxridan 1 tadan, Navoiy viloyatidan 2 ta, Samarqand viloyatidan 3 ta murojaat kelib tushgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Qishloq xo'jaligi vazirligiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlarning ko'rib chiqish natijalari bilan, 8 ta holatda murojaatchilarga tushuntirishlar berildi, 2 ta holatda qanoatlantirildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish natijasida korrupsion holatlar aniqlanmadi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar mazmunini tahlil qilgan holda korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda korrupsiya xavf-xatarlarini minimallashtirish bo'yicha hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlariga tegishli topshiriqlar berildi.

**Komplaens nazorat va
Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'limi boshlig'i**



Sh. Teshaboyev